



NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi
ma‘lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)






Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)


3

20 083



Mas'uliyati cheklangan
jamiyat

1 155



Oilaviy korxonona

134



Unitar korxonona

7 370



Xususiy korxonona

22



Aksiyadorlik jamiyati

498



Boshqa korxonalar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-iyun oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-iyun oylarida)





Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra 1 191 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 424 taga yoki 1,6 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 155 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 420 taga yoki 1,7 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 239 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 taga yoki 1,6 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra 20 628 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 397 taga yoki 1,3 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 20 083 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 246 taga yoki 1,3 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 687 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 410 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra 285 tani tashkil etib, ulardan 276 tasi yoki 96,8 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 27 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatimizda 19 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga, birlikda)




**Namangan viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Rossiya Federatsiyasi	57	45	12
Qozog'iston Respublikasi	11	7	4
Xitoy Xalq Respublikasi	49	27	22
Qirg'iz Respublikasi	11	10	1
Tojikiston Respublikasi	10	8	2
Turkiya Respublikasi	34	16	18
Hindiston Respublikasi	12	4	8
Janubiy Koreya Respublikasi	32	23	9
Singapur Respublikasi	4	2	2
Eron Islom Respublikasi	4	2	2

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)


10

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Namangan viloyati	276	179	97
Namangan shahri	85	53	32
Mingbuloq	7	2	5
Kosonsoy	29	23	6
Namangan	17	16	1
Norin	11	7	4
Pop	26	17	9
To'raqo'rg'on	17	9	8
Uychi	17	15	2
Uchqo'rg'on	10	5	5
Chortoq	26	16	10
Chust	19	10	9
Yangiqo'rg'on	12	6	6

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Namangan shahrida 85 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 30,7 %), Kosonsoy 29 ta (10,5 %) Pop 26 ta (9,4 %), Chortoq 26 ta (9,4 %), Chust 19 ta (6,9 %), To'raqo'rg'on, Uychi hamda Namangan 17 ta (6,1 %)dan tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Namangan shahri (33,6 %), Chust (8,4 %), Namangan (6,9 %), Uychi (6,7 %), Pop va To'raqo'rg'on (6,3 % dan), Kosonsoy (6,1 %) Uchqo'rg'on (5,9 %), Chortoq (5,6 %), Yangiqo'rg'on (5,1 %), Norin (4,8 %) hamda Mingbuloq (4,4 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil yanvar-iyun oylarida, birlikda)


2021- yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Namangan shahrida (25,5 %), Chust (9,8 %), To'raqo'rg'on (7,8 %), Chortoq (7,4 %), Pop (7,1%), Uychi (7,0 %), Uchqo'rg'on (6,8 %), Norin (6,3 %), Namangan (6,0 %), Kosonsoy (5,9 %), Yangiqo'rg'on (5,2 %) hamda Mingbuloq (5,1%) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

12




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Namangan shahrida (37,6 %), Uychi (7,2 %), Pop (6,8 %), Namangan, Chortoq (6,4 %dan), Kosonsoy (6,1 %), Chust (5,4 %), Yangiqo'rg'on va Uchqo'rg'on (5,2 %dan), Norin (5,1 %), To'raqo'rg'on (5,0 %), Mingbuloq (3,7 %) tumanlari hissasiga tegishli.



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, viloyatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni



(2021- yilning yanvar-iyun oyida, birlikda)



2021- yilning yanvar-iyun oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda To'raqo'rg'on (28,0 %), Yangiqo'rg'on (15,5 %), Namangan shahri (10,5 %), Namangan (10,5 %), Chortoq (13,0%), Chust (5,9 %), Uchqo'rg'on (7,1 %), Kosonsoy (3,3 %), Mingbuloq (2,1 %), Uychi (1,7 %), Norin va Pop (1,3 % dan) tumanlari hissasiga tegishli.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021- yilning yanvar-iyun oyida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.